



O'ZBEKISTON ICHKI TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY IMKONIYATLARI

Kurbonova Sitora

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0005-8947-2358

sitora.kurbonova@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining ichki turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud resurslar va ular asosida mintaqaviy iqtisodiy va ijtimoiy faollikni oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, har bir mintaqaning o'ziga xos turistik salohiyati, ichki turizm infratuzilmasining rivojlanish holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan. Ichki turizmning hududiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ichki turizm, hududiy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, turizm resurslari, infratuzilma, servis sifati, bandlik.

СОЦИАЛЬНО -ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

Курбонова Ситора

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В статье научно анализируются возможности развития внутреннего туризма в регионах Республики Узбекистан, имеющиеся ресурсы и механизмы повышения экономической и социальной активности на их основе. Также рассматриваются туристический потенциал каждого региона, текущее состояние инфраструктуры внутреннего туризма, существующие проблемы и предлагаются пути их решения. Особое внимание уделено роли внутреннего туризма в обеспечении региональной стабильности и социально-экономического развития.

Ключевые слова: внутренний туризм, региональное развитие, экономическая стабильность, туристические ресурсы, инфраструктура, качество сервиса, занятость.

SOCIO-ECONOMIC OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN

Kurbonova Sitora

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This article provides a scientific analysis of the opportunities for the development of domestic tourism in the regions of the Republic of Uzbekistan, available resources, and mechanisms to enhance regional economic and social activity. The study also explores the unique tourism potential of each region, the current state of domestic tourism infrastructure, existing challenges, and proposes relevant solutions. Particular attention is given to the role of domestic tourism in promoting regional stability and socio-economic growth.

Keywords: domestic tourism, regional development, economic stability, tourism resources, infrastructure, service quality, employment.

Kirish.

Turizm zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutuvchi, ko'p tarmoqli va daromadli soha hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm nafaqat valyuta tushumlarini ko'paytiradi, balki mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki beradi. Ichki turizm esa davlatning ichki salohiyatini to'laonli ishga solish imkonini yaratadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm sohasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va hududiy asosda rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Ushbu maqola ichki turizmni aynan hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan o'rganadi. Bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ichki turizmni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni faollashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining farovonligini oshirish maqsad qilingan. Ichki turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy birlikni mustahkamlash, madaniy merosni asrash va ekologik ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" ichki turizmni rivojlantirish uchun huquqiy va institutsional asoslarni belgilab berdi.

Xalqaro turizmga nisbatan ichki turizm kamroq moliyaviy resurslarni talab qiladi va mamlakatda barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ichki turizm hududiy tenglikni ta'minlaydi, bandlikni oshiradi, mahalliy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi hamda madaniy merosni asrashga xizmat qiladi. Shu bois, hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va ichki turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun to'g'ri boshqaruv siyosati ishlab chiqilishi zarur.

Adabiyotlar sharhi.

Ichki turizmni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mintaqaviy tenglikni ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirishda muhim omil sifatida talqin etilmoqda. Bugungi kunda bu borada qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotchilar Gümüşhane viloyatining turizm salohiyatini tahlil qilib, ichki turizmning iqtisodiy va madaniy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini yoritgan. Ular mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmasligi sababli turizmning mintaqaviy o'sishga to'la hissa qo'sha olmayotganini ta'kidlaydi. Tadqiqot turizmni mahalliy darajada rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi (Merdan & Okuroğlu, 2016). Ular Sárospatak hududini o'rganib, turizmning iqtisodiy jihatdan orqada qolgan mintaqalar uchun barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratishini aniqladi. Tadqiqot mintaqaviy turizm strategiyalarining hududlararo tenglikka qanday hissa qo'shishini ko'rsatadi (Ifjú et al., 2015).

Erzurumdagi Elmali g'orini o'rganish asosida ular ichki turizmning mahalliy aholi turmush sifati va bandligiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qildilar. SWOT tahlil asosida turizm ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishini ko'rsatdi (Külekçi & Sezen, 2018).

Arslanning (2021) tadqiqoti turizmning kichik shaharlarda iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiyalash va ishsizlik darajasini kamaytirishdagi rolini ko'rsatadi. U mahalliy turizmni rivojlantirish orqali kichik tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalarida o'sish bo'lishini ta'kidlaydi.

Yıldız va Demirtaş (2020) ichki turizm orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkinligini tahlil qilgan. Tadqiqotda ekologik toza turizm amaliyotlari va ularning mahalliy aholining hayot sifatiga ijobiy ta'siri o'rganilgan.

Topal (2019) turizmning kichik mintaqalarda iqtisodiy faollikni oshirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan. U turistik loyihalarning mahalliy infratuzilmaga va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni oshirishi orqali hududiy tenglikka xizmat qilishini ko'rsatgan.

Çelik va Aydın (2018) ichki turizmni ijtimoiy salohiyatni oshirish vositasi sifatida ko'rsatadi. Turizm orqali madaniy almashinuv va jamiyatlararo hamjihatlik kuchayadi, bu esa turmush sifati va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir qiladi.

Koç va Karaman (2017) ichki turizmni ishsizlikni kamaytiruvchi va iqtisodiy tengsizlikni yumshatuvchi omil sifatida ko'rsatgan. Tadqiqot turizmga bog'liq kasblar va xizmatlar yaratish orqali aholi daromadini oshirishga qaratilgan.

Erdoğan (2020) tadqiqotida turizm infratuzilmasining kengaytirilishi orqali mahalliy aholiga transport, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari yaxshilanayotganini ko'rsatgan. Bu, o'z navbatida, umumiy turmush darajasini ko'taradi.

Sezer va Yılmaz (2016) ichki turizm strategiyalarining uzoq muddatli iqtisodiy ta'sirlarini baholab, bu strategiyalar mahalliy iqtisodiyotlarni tashqi tebranishlardan himoya qilishiga urg'u berishadi. Bu iqtisodiy barqarorlikning kalitlaridan biri sifatida ko'riladi.

Umuman olganda, ichki turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlik, mintaqaviy tenglik, ekologik muvozanat va ijtimoiy salohiyatni oshirish mumkin. Shu bois, ushbu sohani rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ichki turizm – bu mamlakat fuqarolarining o'z yashash joyidan tashqarida, ammo mamlakat ichida vaqtincha sayohat qilishini anglatadi. Ichki turizm mahalliy iqtisodiyotga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib, bandlik darajasini oshiradi, xizmatlar sohasini rivojlantiradi, madaniy almashinuvga ko'maklashadi va hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Ichki turizm tushunchasi – bu mamlakat fuqarolari tomonidan o'z yurtining hududlari ichida amalga oshiriladigan sayohat faoliyatidir. Bu faoliyat dam olish, sog'liqni tiklash, madaniy, ta'limiy hamda sport yo'nalishlaridagi turizm turlarini o'z ichiga oladi. Uning ahamiyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Ijtimoiy ahamiyat - madaniy ongni oshiradi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etadi va oilaviy hamda jamoaviy hordiq chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Iqtisodiy ahamiyat - mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, infratuzilmani rivojlantiradi va mahalliy byudjetga soliq tushumlarini oshiradi.

COVID-19 pandemiyasidan so'ng ko'plab mamlakatlar ichki turizmni barqaror yechim sifatida tanladilar. O'zbekiston ham turli milliy dasturlar doirasida ushbu yo'nalishni ayni damda faol rivojlantirmoqda.

O'zbekiston hududlarining turizm salohiyatiga ya'ni O'zbekistonning barcha hududlari o'ziga xos turizm resurslariga ega. Quyida hududlar bo'yicha ichki turizm salohiyatining qisqacha tavsifini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Toshkent viloyati – Bo'stonliq va Parkent kabi hududlarda tog' va ekoturizm rivojlangan. "Chorvoq" va "Amirsoy" kabi dam olish maskanlari mahalliy sayyohlar orasida juda mashhur.

Samarqand va Buxoro – Registon, Po-i-Kalon majmuasi va Islom Karimov maqbarasi kabi yodgorliklar mavjudligi bois madaniy-tarixiy turizmning asosiy markazlari hisoblanadi.

Xorazm va Qoraqalpog'iston – Xiva kabi qadimiy shaharlar, Ellikqal'a kabi cho'l qal'alari va Orol dengizi atrofi ekoturizm uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Farg'ona vodiysi (Namangan, Andijon, Farg'ona) – Hunarmandchilik, milliy taomlar va me'moriy obidalar asosida madaniy va gastronomik turizm rivojlantirilmoqda.

Surxondaryo va Qashqadaryo – Qadimiy Termiz kabi arxeologik yodgorliklar, tog'larda sarguzasht turizmi va tarixiy qal'alar mavjud.

Navoiy va Jizzax – Cho'l hududlarida safari turizmi va ziyorat turizmiga ixtisoslashgan imkoniyatlar mavjud.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda mahalliy sayyohlar soni 12,2 millionga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 15% ga ko'proqni tashkil etadi.

Ichki turizmni rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar borgan sari ortib bormoqda. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy bir qamcha omillar mavjud:

1. Aholi turmush darajasining oshishi – o'rta qatlamning o'sib borishi sayohat va hordiq xizmatlariga bo'lgan talabni oshirmoqda.

2. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar – subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va normativ-huquqiy islohotlar faol tarzda joriy etilmoqda.

3. Transport infratuzilmasining rivojlanishi – zamonaviylashtirilgan avtomobil yo'llari, yuqori tezlikdagi temiryo'l tarmoqlari (YTT), ichki aviaqatnovlar va avtobus yo'nalishlari kengaytirilmoqda.

4. Raqamli transformatsiya – onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar va virtual gid xizmatlari ichki turizmni ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

5. Mahalliy aholining faollashuvi – Homestay, agroturizm va madaniy turizm modellar orqali aholi uchun daromad manbalari yaratilmoqda.

Ayni damda mavjud muammolar va dolzarb muammolar ham yetarlicha. Mavjud imkoniyatlarga qaramay, ichki turizmni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

1. Hududlararo nomutanosiblik – infratuzilma asosan shaharlarda yoki turizmga yo'naltirilgan mintaqalarda rivojlangan.

2. Reklama va axborotning yetarli emasligi – ko'plab mahalliy diqqatga sazovor joylar ichki bozorda yetarlicha targ'ib qilinmayapti.

3. Xizmatlar sifati pastligi – ayniqsa chekka hududlarda mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyati va turizm sifatining past darajada ekani kuzatilmoqda.

4. Malakali kadrlar yetishmasligi – qishloq va chekka hududlarda professional gidlar, operatorlar va xizmat ko'rsatuvchi malakali xodimlar tanqis.

Bu borada bir qancha tavsiyalar va strategik yondashuvlarni ko'rib chiqish lozim.

1. Hududiy turizm klasterlarini yaratish – turizm faoliyatlarini hunarmandchilik, transport va qishloq xo'jaligi kabi qo'shimcha tarmoqlar bilan integratsiya qilish.

2. Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish – davlat-xususiy sheriklik asosida mehmonxona, transport va axborot texnologiyalari xizmatlarini rivojlantirish.

3. Milliy turizm targ'ibot kampaniyalarini yo'lga qo'yish – "o'z yurtिंगni kashf et" yoki "Mahalliy sayohat haftaliklari" kabi aksiyalarni amalga oshirish.

4. Soliq imtiyozlari va grant dasturlarini taqdim etish – turizm sohasida kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash.

5. Ta'lim va kadr tayyorlash tizimini takomillashtirish – oliy o'quv yurtlari va texnikumlarda turizmga ixtisoslashgan o'quv dasturlarini joriy etish.

Hamda boshqa tahliliy takliflar va usullarni ham ko'rishimiz mumkin. Bunda asosiy tavsiyalar bilan bir qatorda, ichki turizmni rivojlantirish chuqurroq, tizimli va innovatsiyalar bilan uzviy bog'langan yondashuvlarni talab qiladi. Quyida ushbu tashabbuslarning batafsil bayoni keltirilgan:

1. Hududlar bo'yicha turizm sohalarini shakllantirish va markazlashtirish. Har bir hudud mavjud mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida o'zining turizm ixtisoslashuvini ishlab chiqishi lozim (masalan, Xorazm – etnografik va tarixiy turizm; Farg'ona – hunarmandchilik va gastronomik turizm) bu juda ham foydali bo'ladi albata. Hududlar o'rtasida koordinatsion markazlar tashkil etilishi kerak, bu mintaqalarga o'zaro uyg'unlashgan va bir-birini to'ldiruvchi turizm xizmatlarini taklif qilish imkonini yaratib beradi. Hamda har bir klaster ichida mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari va boshqa qo'llab-quvvatlovchi faoliyatlar (shu jumladan, ekskursiyalar) o'rtasida funksional integratsiya to'liq ta'minlanishi zarur.

2. Yashil (barqaror) turizm va ekologik choralarni rivojlantirish kerak. Ekoturizmni yaratish orqali O'zbekistonning tabiiy boyliklarini (masalan, Orolbo'yi hududi, Zarafshon

tog'lari va G'ijduvon cho'li) asrab-avaylash bilan birga, mahalliy iqtisodiyotni ham rivojlantirish mumkin va "Yashil mehmonxona" ("Green Hotel") konsepsiyasini joriy etish zarur, jumladan energiya tejankor mehmonxonalar va ekologik toza transport vositalaridan (masalan, velosiped yo'laklari va elektromobillar) yetarlicha foydalanish ekologiyani yaxshilanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

3. Raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish kerak. Turistik xaritalar, sayyohlik qo'llanmalari va mehmonxona bron qilish xizmatlari mobil ilovalar orqali taqdim etilishi kerak. Hozirgi kunda dunyo rivojlanmoqda raqamlashtirish ham eng qulay usullardan biriga aylanmoqda. Shaxsiy tavsiyalar bera oladigan sun'iy intellekt asosidagi raqamli gidlar (chatbotlar) ishlab chiqilishi lozim. Bu turistlar hamda mahalliy aholi uchun ham ishlatishga qulay bo'ladi albatta. Turistik manzillarni internetda namoyish etish uchun virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish zarur. Insonlar qulaylikni yaxshi ko'rishadi ularga nisbatan qancha qulayliklar taqdim etsak, o'zimiz uchun ham va sayohatchilar uchun ham har tomonlama yordam bergan bo'lamiz.

4. Ta'lim va inson kapitalini rivojlantirishda, turizm yo'nalishidagi universitet va kollejlarda nazariy ta'limni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirgan dual ta'lim tizimi joriy etilishi lozim (masalan, mehmonxonalar, gidlik va marketing sohalarida amaliyot). Bu juda ham yaxshi natija beradi. Turizm sohasi uchun xorijiy tillarni (ingliz, rus, xitoy, arab tillari) o'rgatishga yo'naltirilgan dasturlar kengaytirilishi zarur. Turizm xizmatlari sifati va mehmondo'stlik madaniyati bo'yicha sertifikatlashtirish dasturlari hamda malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak. Shundagina yoshlar ko'proq bilim ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

5. Mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash lozim. Mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash maqsadida "Homestay", "Farmstay" va "Ethno-house" kabi oilaviy turizm xizmatlarini targ'ib etish zarur. Handa turizm bilan bog'liq grant va subsidiya dasturlariga kirishni yengillashtiruvchi qulay shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Ayollar va yoshlarga mo'ljallangan maxsus turizm startup inkubatorlari tashkil etilishi lozim.

6. Ijtimoiy (inklyuziv) turizmni rivojlantirish lozim. Kam ta'minlangan fuqarolar, nogironligi bo'lgan shaxslar va nafaqadagi keksalar uchun maxsus chegirmali sayohat paketlari ishlab chiqilishi lozim. Bu ham ular uchun e'tabor va qulay sharoit taqdim etadi. Har bir aholining kelib chiqish shart-sharoitlariga e'tabor bergan holda narxlarni belgilash lozim. Davlat tashkilotlari, maktablar va kollejlarda orqali yoshlar uchun qadimiy shaharlar bo'ylab sayohatlar tashkil etilishi kerak.

Ichki turizm - bu O'zbekistonni yangi iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga olib kirishi mumkin bo'lgan eng muhim tarmoqlardan biridir. U nafaqat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, balki madaniy birdamlik, hududlararo muvozanat va umumiy ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Ichki turizmni rivojlantirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Ayniqsa, qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish; Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish; Fuqarolarda madaniy sezgirlik, tarixiy ong va ongli yondashuvni shakllantirish; Hududlararo muvozanat va ichki iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash. Zamonaviy texnologiyalar, yangi yondashuvlar, ekologik barqaror siyosat va mahalliy aholining faol ishtirokini inobatga olgan holda, ichki turizm sohasi O'zbekiston milliy iqtisodiyotining eng muhim tayanch ustunlaridan biriga aylanishi mumkin. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy asosga ega, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, madaniy merosni asrash va hududlararo muvozanatni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish va hududlarga mos strategik yondashuv orqali ichki turizm mamlakat milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Ichki turizm hududlardagi madaniy-tarixiy va tabiiy resurslarning barcha qatlam fuqarolari tomonidan keng jalb qilinishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga hamda mahalliy

tadbirkorlikning faollashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xizmatlar sifatini yaxshilash, kadrlar malakasini oshirish va raqamlashtirish orqali mamlakatlarimiz madaniy merosini asrash hamda ekologiyani ko'zda tutuvchi "yashil turizm" yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot doirasida quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Har bir viloyatning o'ziga xos resurslarini inobatga olgan holda (Toshkent—ekoturizm, Samarqand—tarixiy madaniy turizm, Farg'ona— hunarmandchilik turizmi va h.k.) klaster modelini joriy etish zarur. Bu markazda davlat-xususiy sheriklik asosida mehmonxona, transport, ekskursiya xizmatlari integratsiyalanadi.

2. Orolbo'yi va boshqa ekoturizm hududlarida "Green Hotel" va elektr transportini joriy etish kabi ekoturizm dasturlari amalga oshirilishi, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy muhitni muhofaza qilish choralari kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Mobil ilovalar, onlayn bron qilish tizimlari va AI asosidagi virtual gidlar (chatbotlar) yordamida sayyohlarning xaridoriga qulayliklar yaratish. VR/AR texnologiyalari orqali turistik joylarni ilgari surish platformalarini rivojlantirish.

4. Turizm sohasiga ixtisoslashgan oliy ta'lim va kasbiy ta'lim dasturlarini (dual ta'lim tizimi) joriy etish, servis sifatini monitoring qilish va xalqaro standartlarga mos sertifikatlashtiruv dasturlari tashkil etish.

5. Mahalliy aholi, nogironligi bor shaxslar va keksa yoshdagi fuqarolar uchun arzon paketlar, "Homestay" va "Farmstay" kabi ijodiy tashabbuslar orqali barcha qatlam uchun sayyohlik imkoniyatlarini kengaytirish.

6. "O'z yurtimni kashf et" kabi milliy aksiyalar, hududiy sayyohlik festivallari va ijtimoiy tarmoqlardagi maqsadli reklama orqali ichki turizmni ommalashtirish.

7. Turizm infratuzilmasiga xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun soliq imtiyozlari, grantlar va imtiyozli kreditlar mexanizmlarini kengaytirish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali ichki turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy barqarorlik, madaniy merosni asrash va hududlarara integratsiyani ta'minlovchi milliy ustuvor yo'nalishga aylanadi.

Адабиётлар/Литература/Reference:

Arslan, M. (2021). "Küçük Şehirlerde Turizmin Ekonomik Faaliyetleri Çeşitlendirme ve İşsizlik Azaltmadaki Rolü." *Anadolu Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, 21(3), 45–60.

Çelik, S., & Aydın, M. (2018). "İç Turizmin Sosyal Sermaye Üzerindeki Etkileri: Kültürel Değişim ve Toplumsal Dayanışma." *Sosyal Bilimler ve Turizm Dergisi*, 5(4), 120–135.

Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2020). *Tourism Economics and Policy*. Bristol: Channel View Publications.

Erdoğan, S. (2020). "Turizm Altyapısının Geliştirilmesi ve Yerel Halkın Yaşam Kalitesi Üzerindeki Etkileri." *Turizm ve Kalkınma Dergisi*, 14(3), 98–112.

G'ulomov, Sh.M. *Turizm iqtisodiyoti asoslari*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

Ifjú, L., Szilbek, K., & Verdes, T. (2015). A SÁROSPATAKI JÁRÁS ELEMZÉSE TURIZMUS A FEJLŐDÉS SZOLGÁLATÁBAN. *Journal of Central European Green Innovation*, 3, 1-19.

Islomov, X.T. *Ichki turizm va hududiy rivojlanish*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

Koç, H., & Karaman, E. (2017). "İç Turizmin İstihdam ve Gelir Dağılımı Üzerindeki Etkileri." *Ekonomi ve Turizm Araştırmaları Dergisi*, 9(2), 55–70.

Külekçi, E., & Sezen, İ. (2018). BİR EKOTURİZM AKTİVİTESİ OLARAK MAĞARA TURİZMİ; ERZURUM İLİ ELAMALI MAĞARASI ÖRNEĞİ. *Mimarlık Bilimleri ve Uygulamaları Dergisi (MBUD)*. <https://doi.org/10.30785/MBUD.372754>.

Merdan, K., & Okuroğlu, S. (2016). Alternatif Turizm Çeşitlerinin Gümüşhane Turizmine Etkisi Üzerine Bir Araştırma / A Search on the Effect of the Alternative Kinds of Tourism on the Tourism of Gümüşhane. , 20.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Turizm faoliyati ko'rsatkichlari" (yillik hisobotlar), 2023.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni. "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida".

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy statistik axborotlari, 2022–2024 yillar.

Sezer, D., & Yılmaz, T. (2016). "İç Turizm Stratejilerinin Uzun Vadeli Ekonomik Etkileri." *Stratejik Turizm Araştırmaları*, 3(1), 25–39.

Smith, M., & Robinson, M. (2019). *Cultural Tourism in a Changing World: Politics, Participation and (Re)presentation*. Channel View Publications.

Topal, R. (2019). "Küçük Ölçekli Bölgelerde Turizm Projelerinin Ekonomik Etkileri." *Bölgesel Kalkınma ve Turizm Araştırmaları*, 7(1), 33–47.

UNWTO (World Tourism Organization). *Tourism and Sustainable Development Goals – Journey to 2030*. Madrid: UNWTO, 2020.

World Bank. *Uzbekistan Country Economic Update*, 2023-yil avgust.

WTTC (World Travel & Tourism Council). *Economic Impact Report Uzbekistan*, 2023.

Yıldız, A., & Demirtaş, B. (2020). "İç Turizm ve Ekolojik Sürdürülebilirlik: Uygulamalı Bir Araştırma." *Çevre ve Sürdürülebilirlik Dergisi*, 12(2), 88–102.